

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги



«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Тошкент педиатрия тибиёт
институти ректори
Даминов Б.Т. _____
«_____» 2023 й.

ТОШКЕНТ ПЕДИАТРИЯ ТИББИЁТ ИНСТИТУТИ

УСТАВИ

(янги таҳрирда)

Тошкент - 2023 й.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

«KELISHILDI»

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
Kuzatuv kengashi raisi
Alimov A.V. _____

«____» _____ 2023 y

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori
Daminov B.T. _____

«____» _____ 2023 y.

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

USTAVI

(yangi tahrirda)

Toshkent - 2023 y.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (Toshpti)
I. Umumiy qoidalar

1. O‘rta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti 1972 yilda Ministrler Sovetining 1971 yil 23 iyuldagagi qaroriga ko‘ra tashkil qilingan. 1988 yil 22 martdagagi 226-sonli buyrug‘iga asosan O‘zSSR Sog‘liqni saqlash vazirligining ixtiyoriga o‘tqazilgan hamda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI) deb qayta nomlangan.

2. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (matnda keyingi o‘rinlarda “institut” deb yuritiladi) davlat oliy ta’lim muassasasi hisoblanib, oliy ta’limning asosiy va kasbga oid qo‘sishimcha ta’lim Dasturlarini bajarish bo‘yicha ta’lim faoliyatini bilan shug‘ullanadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq o‘quv-pedagogik va ilmiy-metodik, shuningdek boshqa faoliyatni amalga oshiradi hamda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

3. Institut o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi normativ-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining buyrug‘i va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Institut O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob, shu jumladan valyuta va boshqa hisob raqamlariga ega. Institut o‘z faoliyatini to‘liq xo‘jalik hisobi, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish va o‘z xarajatlarini qoplash asosida olib boradi.

5. Institut O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, davlat tilidagi uning to‘liq nomi va joylashgan manzili ko‘rsatilgan dumaloq muhrga ega bo‘lishga haqli.

6. Institut o‘z nomi, o‘z emblemasi va zaruriy hollarda boshqa mulkiy belgilar ko‘rsatilgan muhr va blankalarga ega bo‘lishga haqli.

7. Institut o‘zining mustaqil balansida hisobda turadigan alohida mol-mulkka ega , o‘z nomidan huquqlarga ega bo‘lishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

8. Institutning pochta va yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar 100140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223.

9. Institutning davlat, rus va ingliz tillaridagi rasmiy to‘liq (qisqartirilgan) nomi:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI)

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI)

Tashkentskiy pediatricheskiy meditsinskiy institut (TashPMI)

Tashkent pediatric medical institute (TashPMI)

10. Institutning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.

**II. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti faoliyatining
asosiy vazifalari, maqsadlari va vakolatlari**

11. Institutning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning intellektual, madaniy va kasbiy kamol topishiga bo‘lgan ehtiyojlarini olyi ta’lim va oliy ta’limdan keyingi professional ma’lumot olish orqali erishishni qondirish;

- jamiyat va davlatning oliy ma'lumotli malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

- har tomonlama rivojlangan va sodiq shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o'z Vatani fidoyisi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, halq an'analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;

- ilmiy-pedagogik xodimlar va ta'lim oluvchilarining tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlarini orqali fanni taraqqiy ettirish, olingen natijalardan ta'lim jarayonida foydalanish;

-tibbiyotning muvofiq sohalaridagi oliy ma'lumotli mutaxassislarni va ilmiy - pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- jamiyatning ahloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitish;

- tibbiyot mutaxassislarni tayyorlashning xalqaro standartlarga mos keladigan yuqori sifatli tizimini shakllantirish;

- aholi o'rtasida ma'rifiy ishlarni olib borish, aholining ma'rifiy va madaniy darajasini oshirish, shuningdek, shaxsni gumanitar tarbiyalash, aholi o'rtasida bilimlarni tarqatish.

Institut Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda:

institutning ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish;

institutning o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash miqdoridan kelib chiqib, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiyamatini belgilash.

12. Institutning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- jamiyat va davlatning oliy ma'lumotli malakali tibbiyot mutaxassislariiga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

- ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish va o'quv jarayoni hamda ilmiy tadqiqotlar integratsiyasini kuchaytirish orqali mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish;

- ta'lim oluvchilar va xodimlarning aqliy va ijodiy salohiyatini amalga oshirish, sport bilan shug'ullanishi, dam olishi uchun sharoitlar yaratish;

- o'zini muntazam takomillashtira oladigan va intellektual kapitalni ko'paytira oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha yagona ilmiy-ta'lim majmuasi sifatida innovatsion oliy o'quv yurtiga aylanish;

- xalqaro makonga integratsiya va boshqalar.

13. Ta'lim sohasidagi faoliyatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqlashtirilganligi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruving uyg'unligi;
ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

14. Institutning asosiy vakolatlari quydagilardan iborat:

a) akademik sohada:

- ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv rejalar, o'quv dasturlari, kasbiy standartlar asosida malaka talablarini tasdiqlash, ta'lim tili va shaklini belgilash;

- ta'lim xizmatlari bozoridagi talablarni hisobga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish narxini belgilash;

- talabalar tomonidan to'langan kontraktlar bo'yicha to'lov muddatlarini belgilash va uzaytirish;

- ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha masofaviy, kechki ta'lim shakllarini, zaruriy holatlarda dual malaka, shu jumladan amaliy malakaga ega bo'lish tizimini joriy etish;

- o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;

- ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

- o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ilmiy tadqiqotlar olib borish qobiliyatiga ega bo'lgan mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar va mutaxassislarни shartnoma asosida jalb etish;

- bozor sharoitlaridan kelib chiqib, o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb qilingan yuqori malakali mutaxassislariga ish haqini belgilash;

b) tashkiliy-boshqaruv mustaqilligi sohasida:

— asosiy faoliyati ta'lim, fan, ularning natijalarini joriy etish va tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat byudjetidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy bo'linmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarini tashkil etish;

- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;

- oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan me'yorlardan qat'iy nazar, muassasa tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

- mehnat bozoridagi talabdan kelib chiqqan holda ta'limning yangi yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ochish va mavjudlarini tugatish;

- xorijiy davlatlar fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'limni tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa vakolatlar.

III. TALABALAR, PROFESSOR-O'QITUVChILAR VA MA'MURIY-BOSHQARUV XODIMLARINING STATUSI , HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI

15. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari quydagilardir: talabalar, ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, professor-o'qituvchilar va ma'muriy-boshqaruv xodimlari.

16. Talabalarning huquq va majburiyatları.

Talabalar quydagi huquqlarga ega:

Davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida oliy ta'lim olish;
ta'lim shakllarini tanlash erkinligi;

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga javob beradigan sifatli ta'lim olish;

ularning psixologik xususiyatlari va fiziologik rivojlanishini hisobga olgan holda yaratilgan ta'lim uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish;

oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim mazmunini davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga ko'ra shakllantirishda ishtirok etish;

pedagogik xodimlar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan har qanday jismoniy va ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsiy haqoratlardan hayot va sog'likni muhofaza qilish;

ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar;

akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va boshqa ta'lim muassasalarigaga bir ta'lim shakli, mutaxassislik shakli, ta'lim yo'nalishi, ixtisoslik yo'nalishidan boshqasiga o'tkazish;

institut boshqaruv masalalarini muhokama qilishda ishtirok etish;

ta'lim olish jarayonida institutning o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy-maishiy inshootlari xizmatlaridan tekin foydalanish;

institutning ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, ilmiy-texnik, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.

Talabalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Institutda talabalarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.

17. Talabalar majburiyatlari:

-o'quv rejali asosida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, mashg'ulotlarda qatnashish, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rish, professor-o'qituvchilarining topshiriqlarini bajarish;

-ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik qilmaslik va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga xalaqit bermaslik;

-ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha ustav va (yoki) boshqa ta'sis hujjatları, institutning ichki tartib qoidalari, vaqtinchalik yashash joylari qoidalari va boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya qilish;

-axloqiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga, hamda o'zining dunyoqarashini kengaytirishga intilish;

-boshqa talabalar va professor-o'qituvchilarining sha'ni, qadr-qimmati va xizmat obro'sini hurmat qilish;

-institutning mulki, moddiy va madaniy boyliklarini himoya qilish.

Talabalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Voyaga etmagan talabalarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari farzandining ta'limi, tarbiyasi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'uldirlar.

Voyaga yetmagan talabalarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, hissiy (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan farzandlar uchun oilada ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash;

institutda, oilada ta'lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda ta'limning istalgan bosqichida o'qishni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish;

institut bilan hamkorlik qilish, o'quv jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, institutga xayriya yordami ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish;

institutning ustavi va (yoki) boshqa ta'sis hujjati, litsenziysi, davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi guvohnomasi, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejali va o'quv dasturlari bilan tanishish;

ta'lim mazmuni, qo'llaniladigan o'qitish va tarbiyalash usullari, ta'lim texnologiyalari, shuningdek o'z farzandlarining ta'lim fanlarini o'zlashtirish natijalari bilan tanishish;

talabalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

institut boshqaruviga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirot etish.

Voyaga yetmagan o'quvchilarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Voyaga etmagan talabalarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari quyidagilarga majburdirlar:

farzandlarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

o'z farzandlarini intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

o'quv jarayonini tartibga soluvchi institutning ichki tartib qoidalariga rioya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatlarsiz o'z farzandlarining ta'lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ta'lim jarayoni ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

Voyaga etmagan o'quvchilarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

19. Pedagogik xodimlar quyidagilarga majburdirlar:

ta'lim jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, ta'lim va tarbiyaning ilg'or va innovatsion shakl va usullaridan foydalanish;

o'quvchilarning psixologik va individual xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olish;

institut ustavi va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlari, ichki mehnat qoidalari talablariga rioya qilish;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirish va zarur bo'lganda egallab turgan lavozimiga ko'ra davriy attestatsiyadan o'tish.

Professor-o'qituvchilar zimmasiga qonun hujjatlariga, shuningdek o'qituvchi va institut o'rtaida tuzilgan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

Pedagogik faoliyatni amalga oshirayotganda pedagogik xodimlarga odob-axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlar qilish taqiqlanadi.

20. Pedagogik kadrlar maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagogik kadrlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlaniladi, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi, ijtimoiy mavqeい va nufuzini oshirishi uchun tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratiladi, huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishi uchun kafolatlar beriladi.

Pedagogik kadrlarning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat tomonidan himoya qilinadi.

Pedagogik xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, o‘quvchilar bilimini to‘g‘ri va xolisona baholashga ta‘sir ko‘rsatishga, shuningdek ularning o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sinqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pedagogik xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o‘z sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish;

o‘quv rejasи doirasida mualliflik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘qitish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslar, modullardan foydalanish va ijodiy faoliyatni namoyon etish;

ta’lim va tarbiyaning zamonaviy pedagogik shakllari, vositalari, usullarini tanlash va ulardan foydalanish erkinligiga;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlar bo‘yicha axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

institut faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

xodimlar vakillari bo‘lish, kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlariga a’zo bo‘lish, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatida ishtirok etish;

o‘z kasbiy huquqlari va umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga qo‘shilishi;

ularning kasbiy faoliyatiga aralashishdan himoya qilish;

davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish;

talabalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagogik xodimlar qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Pedagogik xodimlarni ularning xizmat vazifalariga taalluqli bo‘lmagan boshqa ishlarga jalb qilish taqiqilanadi.

21. Professor-o‘qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi, assistent va stajyor-o‘qituvchi lavozimlari kiradi.

22. Pedagogik kadrlar lavozimiga nomzod bo‘lgan shaxslar tanlov asosida lavozimga qabul qilinadi.

23. Institutning ma’muriy-xo‘jalik, muhandislik-texnik va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning huquq va majburiyatlari oliy ta’lim muassasasining ichki tartib qoidalari va lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

4. INSTITUTGA QABUL QILISH VA O‘QISH TARTIBI

24. ToshPTIga barcha abituriyentlar uchun o‘qishga qabul qilish ta’lim olishda teng imkoniyatlarni ta’minalash tamoyili asosida amalga oshiriladi qonunchilik hujjaligiga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin bo‘lgan ayrim toifadagi shaxslar bundan mustasno.

Institut abituriyentlarni va (yoki) ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarini nizom, litsenziya yoki davlat akkreditatsiyasidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, o‘quv dasturi hamda ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjalilar, talabalarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart .

ToshPTI muassasasiga o‘qishga qabul davlat granti va (yoki) to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

ToshPTIga o‘qishga qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xorijiy fuqarolarni qabul qilish pullik shartnoma asosida amalga oshiriladi (davlat granti ajratilgan hollar bundan mustasno).

Oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilish parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Imtiyozli o‘qishga talabalarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda qo‘srimcha qabul parametrlari belgilanadi.

25. O‘qishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlar, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda talabalarni qabul qilish uchun belgilangan parametrlar doirasida amalga oshiriladi.

O‘qishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, institut va fuqarolar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Institutga fuqarolar umumiy asosda, tanlov natijalariga ko‘ra o‘qishga maqsadli qabul yo‘li bilan qabul qilinadi.

26. Institut rektorining buyrug‘i bilan o‘qishga qabul qilingan shaxs ToshPTIning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi beriladi.

ToshPTIga qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ma’lumotiga ega bo‘lgan shaxslar arizalariga binoan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari natijalariga ko‘ra to‘plangan ballarning reyting tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

27. Davlat grantlari bo‘yicha va to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi shaklida ta’lim olayotgan talabalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta’minlanadilar.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari talabalari tegishli me’yoriy-xuquqiy xujjalarga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va Beruniy, Ibn Sino, Islom Karimov, Navoiy va Ulug‘bek nomlardagi Davlat stipendiyalari hamda boshqa jamoatchilik tashkilotlari tomonidan ta’sis etilgan, shuningdek, o‘qishga yo‘llagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlangan stipendiyalarni olish huquqiga egadirlar.

28. Harbiy xizmatni o‘tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug‘ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta’tillari davrida talabaga amaldagi qonunchilik tomonidan tasdiqlangan tartib asosida akademik ta’til berilishi mumkin.

29. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjalari muvofiq kunduzgi o‘quv shaklida ta’lim olayotgan talabalarga oliy ta’lim muassasasida o‘qiyotgan vaqt davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkonini beriladi.

30. Institutning Talabalar turar joyiga muhtoj talabalar ToshPTIning talabalar turar joylaridan sanitariya me’yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta’minlanadi. Talabalar turar joylarida talabalarga kommunal-maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar ToshPTI bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq belgilanadi. Vaqtinchalik yashash joylaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar miqdori oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Institut talabalarning ayrim toifalari uchun vaqtinchalik yashash joyidan foydalanganlik uchun to‘lov miqdorini kamaytiradi yoki ularni to‘lovdan butunlay ozod qiladi. Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, o‘qish davrida yetim qolgan bolalar,

jismoniy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) vaqtinchalik yashash joyidan foydalanganlik uchun haq to‘lashdan ozod qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy xujjatlarida belgilangan tartibda talabalarga o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida institutning o‘zida, shuningdek, boshqa joylarda ishlashga ruxsat etiladi.

31. Institutdan o‘z hohishi yoki uzrli sabablarga ko‘ra chetlashtirilgan talaba, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o‘qishga tiklanish huquqiga ega.

Ilgari oliy ta’lim muassasasidan ma’muriyatning tashabbusi bilan chetlashtirilgan shaxslarni, barcha o‘quv shakllari bo‘yicha talabalar safiga qayta tiklash to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Institut bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari talabalarini belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishlarini ko‘chirish (o‘qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

32. O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo‘lmagan nodavlat oliy ta’lim muassasalari va boshqa mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari (markazlar, bo‘limlar, o‘quv-maslahat punktlari va boshqalar)dan talabalarni ToshPTIga o‘qishini ko‘chirish (o‘qishga tiklash) mumkin emas.

Talabalar o‘qishini bir oliy ta’lim muassasasidan boshqasiga ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

33. Talabalarga nisbatan intizomiy jazo chorralari ToshPTI ichki qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq qo‘llaniladi.

34. ToshPTI tomonidan amaldagi me’yoriy hujjalarga muvofiq tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari tashkil etiladi.

Institutda vrachlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetida o‘qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi. Ta’lim olish sohasida tinglovchilar maqomi tegishli o‘quv shaklida ta’lim olayotgan bakalavriat va magistratura talabalarining maqomi bilan tenglashtiriladi.

35. Doktorantura, tayanch doktorantura yoki mustaqil malaka oshirish ToshPTIda tibbiyotning barcha mutaxassisliklar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib boradigan va tegishli ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya tayyorlaydigan shaxslar bilan jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan uzlusiz ta’lim turi sifatida qaraladi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

tayanch doktorantura;

doktorantura;

mustaqil izlanuvchilik.

tayanch doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertasiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiz izlanuvchilar uchun institutda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertasiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy

izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun institutda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun institutda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli.

36. Oliy ta'lim muassasalari doktoranturasida ta'lim olish uch yilgacha davom etadi va amaldagi qonunchilikga asosan amal qiladi.

IV. O'QUV-TARBIYATIY VA ILMIY-METODIK IShLAR

37. Instituti quyidagi yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning asosiy ta'lim dasturlari, qo'shimcha ta'lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning dasturlarini amalgalash oshiradi:

1) Oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura):

a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (bakalavriat) o'quv shakli

A. Oliy ta'lim yo'nalishi.

Ta'limning kunduzgi shakli

60910300- «Pediatriya ishi» (Umumiy amaliyot pediatri)

60910200- «Davolash ishi» (Umumiy amaliyot shifokori)

5111000- «Professional ta'lim» (5510100 Davolash ishi) (Umumiy pediatr -pedagog)

350501 - Xalqaro fakultet davolash ishi

350502 - Xalqaro fakultet pediatriya ishi

60911200- «Oliy hamshiralik ishi» (oliy ma'lumotli hamshira)

60910600 - Tibbiy biologiya ishi

609111000 - Xalq tabobati

2). Magistratura mutaxassisliklari*

Ta'limning kunduzgi shakli

shifri	Mutaxassislik
70910201	Akusherlik va ginekologiya
70910202	Endokrinologiya
70910203	Terapiya
70910204	Otorinolaringologiya
70910205	Kardiologiya
70910206	Oftalmologiya
70910310	Bolalar yuqumli kasalliklari
70910207	Yuqumli kasalliklar
70910208	Dermatovenerologiya
70910209	Nevrologiya
70910211	Psixiatriya
70910212	Xirurgiya
70910227	Tibbiy radiologiya
70910216	Tibbiy psixologiya
70910221	Travmatologiya va ortopediya

70910224	Shoshilinch tibbiy yordam
70910215	Sog‘lijni saqlashni boshqarish va jamoat sog‘ligini saqlash
70910214	Neyroxirurgiya
70910218	Morfologiya
70910313	Neyroreabilitologiya
70910203	Nefrologiya
70910226	Gematologiya va transfuziologiya
70910301	Pediatriya
70910306	Neonatologiya
70910311	Bolalar allergologiyasi
70910303	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi
70910307	Bolalar va o‘smirlar gnekologiyasi
70910308	Bolalar gastroenterologiyasi
70910304	Bolalar kardiologiyasi va revmatologiyasi
70910305	Bolalar nevrologiyasi
70910312	Bolalar nefrologiyasi
70910309	Bolalar pul’monologiyasi
70910302	Bolalar xirurgiyasi

Oliy o‘quv yurtidankeyingi ta’lim instituti: stajyor tadqiqotchi, tayanch doktorantura, doktorantura yoki yoki mustaqil izlanuvchanlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish.

* *magistraturaning yangi mutaxassisliklari extiyojlardan, tibbiyotda tadqiqot yo‘nalishlarining, innovatsion texnologiyalar rivojlanishiga muvofiq ochilishi mumkin.*

38. Institut ta’limning asosiy ta’lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o‘qish muddati 6 yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo‘yicha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha «bakalavr» darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura - yo‘nalishning muayyan mutaxassisligi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o‘qish muddati 2 yildan kam bo‘lmagan oliy ta’limdir.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo‘yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo‘yicha «magistr» darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish yoki tanlangan ta’lim yo‘nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta’lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta’limning turli bosqichida asosiy ta’lim dasturlari bo‘yicha dastlabki ta’lim olish, ikkinchi oliy ta’lim olish sifatida qaralmaydi.

a) **Klinik ordinatura** – kadrlarni qayta tayyorlash tizimiga kiradigan ta’lim turi bo‘lib vrachlarning uzlusiz kasbiy ta’limi kshp pag‘onlai tuzilmasining bir qismi hisoblanadi.

Klinik ordinaturada o‘qishni Vazirlar maxkamasining 2009 yil 18 dekabralagi № 319- son qarorini 2 – ilovasidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Institutda vrachlarni klinik ordinaturada o‘qitishni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan vrachlik mutaxassisliklari nomenkulatrasи bo‘yicha,

mutaxassisiga qo‘yiladigan ixtisoslik talabi asosida tuzilgan har qaysi mutaxassislik bo‘yicha o‘quv rejasi va o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

ToshPTI da xozirga vaqtida klinik ordinaturada quyidagi mutaxassisliklar bo‘yicha shifokorlar tayyorlanadi:

1. Akusherlik va ginekologiya
2. Allergologiya va klinik immunologiya
3. Asab kasalliklari
4. Anesteziologiya va reanimatologiya
5. Bolalar xirurgiya
6. Bolalar anesteziologya va reanimatsiyasi
7. Bolalar asab kasalliklari
8. Bolalar va o‘s米尔 qizlar ginekologiyasi
9. Bolalar yuqumli kasalliklari
10. Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan
11. Dermatovenerologiya
12. Kardiologiya
13. Neyroxirurgiya
14. Neonatologiya
15. Nefrologiya gemodializ bilan
16. Narkologiya
17. Xirurgiya
18. Onkologiya
19. Otorinolaringologiya
20. Oftalmologiya
21. Pediatriya
22. Psixiatriya
23. Terapiya
24. Tibbiy radiologiya
25. Travmatologiya va ortopediya
26. Ftiziatriya
27. Endokrinologiya
28. Epidemiologiya
29. Sud tibbiyoti

Sankt-Peterburg Davlat pediatriya tibbiyot universiteti bilan qo‘shma dasturlarlar asosida klinik ordinaturaning 23ta mutaxassisliklari bo‘yicha ta’lim olish imkonи mayjud. Ta’lim oluvchilar o‘qish muddatining 50% yilini institutda, qolgan 50% yilini esa Sankt-Peterburg Davlat pediatriya tibbiyot universitetida davom ettirishadi.

39. Institutda ta’lim jarayonini tashkil etish, tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan o‘quv rejaları va fanlarning dasturlari, oliy ta’lim muassasasi rektori (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan yillik kalender o‘quv jadvali hamda mashg‘ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta’lim jarayonini maqsadli yo‘naltilish yo‘li bilan tashkil etish, ya’ni ta’lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo‘li bilan oliy ta’lim muassasasi talabalariga oliy ta’limning asosiy kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining birligi davlat ta'lim standartlari bilan ta'minlanadi. Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy - iqtisodiy va gumanitar fanlari kafedralari, ma'naviy-ma'rifiy va sport bo'g'inlariga, talabalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlariga, rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

40. Institutda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, konsultasiya, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, mustaqil ish, yozma ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi) hamda magistrlik dissertasiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki 40 daqiqalik tanaffussiz qo'shma ma'ruza) daqiqalik akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi, tushlik uchun tanaffus – 40 daqiqa.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus hamda ingliz tili hisoblanadi.

41. Institutda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib boriladi.

Oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va "Uzstandart" agentligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

42. ToshPTIda o'quv yili ikki semestrga bo'linadi va uning xar birida talabalarning o'zlashtirishi reyting va baxolash nazorati shaklida olib boriladi. O'zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Oliy ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq tartibga solinadi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestasiyasi to'g'risidagi nizom"ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestasiyasi bilan tugallanadi.

Institutda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

2) Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti:

a) falsafa doktorlari uchun (PhD):

- 03.00.04 - bioximiya
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya
- 14.00.02 - Morfologiya
- 14.00.03 - Endokrinologiya
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya
- 14.00.05 – Ichki kasalliklar
- 14.00.06 - Kardiologiya
- 14.00.07 – Gigiena
- 14.00.08 - Oftalmologiya
- 14.00.09 - Pediatriya
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar
- 14.00.11- Dermatologiya va venerologiya
- 14.00.13 - Nevrologiya
- 14.00.14 - Onkologiya

- 14.00.15 – Patologik anatomiya
 - 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya
 - 14.00.18 -Psixiatriya va narkologiya
 - 14.00.19 – Klinik radiologiya
 - 14.00.21 - Stomatologiya
 - 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya
 - 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish
 - 14.00.24 -Sud tibbiyoti
 - 14.00.25- Klinik-laborator va funksional diagnostika
 - 14.00.26 -Ftiziatriya
 - 14.00.27- Xirurgiya
 - 14.00.28 - Neyroxirurgiya
 - 14.00.30 - Epidemiologiya
 - 14.00.33 - Jamiyat salomatligi. sog‘liqni saqlash menejmenti
 - 14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi
 - 14.00.36 -Allergologiya va immunologiya
 - 14.00.37 - Anesteziologiya va reanimatologiya
- b) fan doktorlari uchun (DSc):**
- 03.00.04 - bioximiya
 - 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya
 - 14.00.02 - Morfologiya
 - 14.00.03 - Endokrinologiya
 - 14.00.04 - Otorinolaringologiya
 - 14.00.05 – Ichki kasalliklar
 - 14.00.06 - Kardiologiya
 - 14.00.07 – Gigiena
 - 14.00.08 - Oftalmologiya
 - 14.00.09 - Pediatriya
 - 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar
 - 14.00.11- Dermatologiya va venerologiya
 - 14.00.13 - Nevrologiya
 - 14.00.14 - Onkologiya
 - 14.00.15 – Patologik anatomiya
 - 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya
 - 14.00.18 -Psixiatriya va narkologiya
 - 14.00.19 – Klinik radiologiya
 - 14.00.21 - Stomatologiya
 - 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya
 - 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish
 - 14.00.24 -Sud tibbiyoti
 - 14.00.25- Klinik-laborator va funksional diagnostika
 - 14.00.26 -Ftiziatriya
 - 14.00.27- Xirurgiya
 - 14.00.28 - Neyroxirurgiya
 - 14.00.30 - Epidemiologiya
 - 14.00.33 - Jamiyat salomatligi. sog‘liqni saqlash menejmenti

14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi

14.00.36 -Allergologiya va immunologiya

14.00.37 - Anesteziologiya va reanimatologiya

ToshPTIda 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya, 14.00.09 – Pediatriya va 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosliklar bo‘yicha **falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)** ilmiy darajasini berish yuzasidan Toshkent pediatriya tibbiyat instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengash faoliyat ko‘rsatadi.

43. ToshPTI institut kengashning tematik rejalar bo‘yicha, bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligini ta’minlagan holda talabalar va doktorantlarni keng jalb etib, ilmiytadqiqot va ijodiy ishlarni olib boradi.

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi:

- fan, texnika va madaniyatning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental, amaliy hamda innovasion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag‘lari;
- shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan xorijiy tashkilotlar mablag‘lari.

V. OLIY TA’LIM MUASSASASINING TUZILMASI, BOSHQARUV ORGANLARI VA IJTIMOIY TUZILMALARI

44. Toshkent pediatriya institutining tarkibiga quydagilar kiradi:

a) Fakultetlar:

1. I- pediatriya va xalq tabobati fakulteti
2. II- pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti
3. Tibbiy – pedagogika va davolash fakulteti
4. Xalkaro fakultet
- 5 Oliy ma’lumotli xamshira ishi bo’limi

b) Kafedralar:

Nº	Kafedralar nomi
1	Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya
2	Xorijiy tillar
3	O‘zbek tili va adabiyoti
4	Biofizika, tibbiy informatika
5	Tibbiy va biologik kimyo,tibbiy biologiya, umumiyl genetika
6	Farmakologiya, fiziologiya
7	Anatomiya, patologik anatomiya
8	Gistologiya, patologik fiziologiya
9	Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil qilish va boshkarish
10	Bolalar kasalliklari propedevtikasi
11	Fakultet pediatriya
12	Shoshilinch pediatriya, xalokat tibbiyoti
13	Gospital pediatriya №1, xalq tabobati
14	Gospital pediatriya № 2, xalq tabobati
15	Neonatologiya
16	Oilaviy shifokorlik №1, jismoniy tarbiya, fuqarolar muxofazasi
17	Oilaviy shifokorlik №2, klinik farmakologiya

18	Tibbiy radiologiya
19	Sud tibbiyoti, tibbiyat huquqi
20	Yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari, ftiziatriya va pulmonologiya
21	Fakultet bolalar xirurgiyasi
22	Gospital bolalar xirurgiyasi
23	Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi
24	Travmatologiya va ortopediya, neyroxisirurgiya
25	Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi
26	Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ
27	Xirurgik kasalliklar
28	Teri va tanosil, bolalar teri va tanosil kasalliklari, OITS
29	Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika
30	Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya
31	Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi
32	Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi, bolalar stomatologiyasi
33	Umumi xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari
34	Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi
35	Allergologiya, klinik immunologiya, mikrobiologiya
36	Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya
37	Bolalar onkologiyasi
38	Urologiya, bolalar urologiyasi

v) Boshqa bo‘linmalar:

Rektorat, yoshlar bilan ishslash, Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti, II-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti va Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti, Xalqaro qo‘shma fakultet, Malaka oshirish fakulteti (Oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash, klinik ordinatura va birlamchi ixtisoslashtirish), Oliy ma’lumotli xamshira ishi bo‘limi, Magistratura bo‘limi, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash, nazorat va monitoring bo‘limi, Ilmiy-tadqiqotlar va innovasiyalar bo‘limi, Raqamli ta’lim texnologiyalari va o‘qitishning texnik vositalari markazi, O‘quv-simulyatsiya va talabalarning bilimini baxolash markazi, Ilmiy-pedagogik kadrlarni tayerlash bo‘limi, Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi, Xalqaro aloqalar departamenti, Axborot-tahlil va statistika bo‘limi, Birinchi va ikkinchi bo‘limlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kompleans-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi, Talabalarni ro‘yxatga olish sektori, Talabalarni ishga joylashtirish bo‘limi (Karera markazi), Ilg‘or texnologiyalar va strategik tashabbuslar Markazi, Talabalar turar joyi №1, №2, Sport-sog‘lomlashtirish Majmuasi, Talabalarni turar joy bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘lim, Axborot - resurs markazi, Tahririy-nashriyot bo‘limi, «Pediatriya» jurnali muharriyati», «Pediatr» gazetasi, Ilmiy tadqiqot laboratoriya, Xodimlar bo‘limi, Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati, Yuristkonsult, Klinik (o‘quv) bazalari va talabalar amaliyoti bo‘limi, ToshPTI klinikasi, ToshPTI –klinik bazalari, Texnik-foydanish va xo‘jalik bo‘limi, Fuqaro va mehnat muxofazasi bo‘limi, devonxona va arxiv, Reja-moliya bo‘limi, buxgalteriya, Sport- sog‘lomlashtirish lageri, Psixolog, Kotib ish yurituvchilar, Kozonxona, Garaj.

Belgilangan tartibda Toshkent pediatriya tibbiyot institutida Akademik litsey faoliyat ko‘rsatadi.

Jamoat tashkilotlari:

Xodimlar va talabalar kasaba uyushmasi qo‘mitasi, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” YoIXBT, Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslaxatchisi, Murabbiylar kengashi va x.k.

Institut tarkibiy tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent pediatriya tibbiyat instituti Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilangan tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

VI. OLIY TA’LIM MUASSASASINI BOSHQARISH

45. Kuzatuv kengashi institutga rahbarlik qiluvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan davlat organi bo‘lib, ta’sischi vazirliklar vakillari, kadrlar buyurtmachilar, jamoatchilik va institut vakillari hamda boshqa shaxslardan iborat tarkibda tuziladi. Kuzatuv kengashining vakolatlari, uni shakllantirish tartibi va faoliyati “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi .

Kuzatuv kengashi quyidagi vakolatlarga ega:

- muassasaning moliyaviy yil uchun biznes-rejasini tuzish (unda muassasa faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari, shu jumladan maqsadlar, rejalashtirilgan natijalar va muassasada kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish tahlili ko‘rsatilgan), shuningdek daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini muhokama qilish;
- ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va ixtisosliklar bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- institut zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan rektor va prorektordarning faoliyatini o‘rganish hamda axborotlarini tinglash;
- ichki audit xizmatiga qo‘shimcha moliyaviy nazoratni amalga oshirishni topshirish;
- institutni rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etish;
- menejerning ish faoliyatini baholash;

Institut kuzatuv kengashi amaldagi qonun hujjalariغا muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

46. ToshPTIga bevosita rahbarlik Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rektor tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga, shuningdek, oliy ta’lim muassasasining Ichki tartib qoidalari, Oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to‘la mas’uldir.

Rektor O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oliy ta’lim muassasasi nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, oliy ta’lim muassasasining mol-mulkiga mas’ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida oliy ta’lim muassasasining hisob raqamlarini ochadi, qonun hujjalari nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun mablag‘ sarflash huquqiga ega, moliyaviy mablag‘lardan o‘rnatilgan tartibda foydalanish bo‘yicha farmoyishlar beradi.

Rektor institutning vakolati doirasida:

- institutning barcha xodimlari, talabalar va boshqa ta’lim olayotganlar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;
- bo‘ysunuvchi vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda fakultet dekanlari va bosh buxgalterni lavozimiga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi;
- institut prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari hamda mas’uliyatlarini belgilaydi;

- institut xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek ilmiy-pedagogik xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ishga olish va bo‘shatishni amalga oshiradi;

- institut tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo‘limmalarning vazifalarini belgilaydi va ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- institut xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik ustamalar va qo‘srimchalarni belgilaydi;

- kasaba uyushma qo‘mitasi yoki institutning boshqa vakolatli organi bilan kelishgan holda Ichki tartib qoidalarini tasdiqlaydi, jamoakelishuvi/sharnomasini imzolaydi;

- institutning amaldagi qonun xujjatlari yoki Vazirlikning normativ-huquqiy xujjatlari buzilgan holda chiqarilgan buyruqlarini bekor qiladi;

- institutda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag‘lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan oliy ta’lim muassasasi xodimlarining soni va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida oliy ta’lim muassasasi professor - o‘qituvchilari tarkibi va oliy ta’lim muassasasi xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

- institut Kengashining tavsiyasiga ko‘ra o‘rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy xujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish qarorlarini tasdiqlaydi.

“Oliy ta’lim muassasasining kafedrasi to‘g‘risidagi nizom” talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi Institut Kengashining tavsiyasiga ko‘ra kafedralar tashkil etiladi yoki tugatiladi.

47. “Oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq institut faoliyatining asosiy masalalarini ko‘rish uchun Kengash tashkil etiladi.

Institut Kengashi raisi rektor hisoblanadi, Kengash tarkibiga prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda mutaxassislar tayyorlovchi kafedralar mudirlari, shuningdek, talabalar va oliy ta’lim muassasasi xodimlari kasaba uyushmasi kengashi vakillari kiradi. Kengashning boshqa a’zolari umumiy majlisda (konferensiyada) yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Professor-o‘qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug‘i bilan belgilanadi.

Ilmiy Kengashning vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Kengashi to‘g‘risidagi Nizom” bilan belgilanadi.

48. ToshPTIda kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni ta’lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning oliy ta’lim muassasasida saylangan organlari amalga oshiradi. Talabalar va xodimlarni vakolat organlarining huquqlari va ularga nisbatan oliy ta’lim muassasasi ma’muriyatining majburiyatları quyidagilardir: talabalarni va xodimlarni ijtimoiy ximoya qilish, mexnatni muxofaza qilish, ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy tadbirlarni olib borish, kam ta’minlangan, ko‘p farzandli xodimlarga moddiy yordam ko‘rsatish.

49. Ustavdagi vazifalarni hal qilish uchun institutda ilmiy va jamoatchilik jamiyatlarini, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashlari va boshqalar tashkil qilinishi mumkin.

50. Institut fakultetlarini Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda rektor tomonidan tayinlanadigan dekanlar boshqaradi.

Fakultet dekanlari o‘z faoliyatida “Oliy ta’lim muassasasining fakulteti to‘g‘risidagi Nizom”ga amal qiladi.

“Oliy ta’lim muassasasining fakulteti to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq fakultetda Ilmiy kengash tashkil etilishi mumkin.

Ilmiy kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va foaliyatining tartibi “Oliy ta’lim muassasasi fakultetining Ilmiy Kengashi to‘g‘risidagi nizom” bilan belgilanadi.

51. Kafedra faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tanlov asosida institut Kengashining tomonidan saylanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyatining tartibi “Oliy ta’lim muassasasining kafedrasini to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

VII. MOLIYa - XO‘JALIK FAOLIYATI VA MODDIY-TEXNIK BAZA

52. Institut o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilikga muvofiq amalga oshiradi.

Ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat (ta’sischi) tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmular, oliy ta’lim muassasasining pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste’mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo‘lgan mulklar biriktirilgan.

Institut faqat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob’ektlar qatoriga kiritilgan.

Institutga ajratilgan yer uchastkalari oliy ta’lim muassasasiga muddatsiz tekin foydalanish uchun biriktirilgan.

53. Institutga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘a, hadya yoki vasiyat bo‘yicha berilgan pul mablag‘lari, mol-mulk va boshqa mulkiy ob’ektlarga, oliy ta’lim muassasasi faoliyatining samarasini hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o‘z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob’ektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

54. Institut mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega.

Ijara haqi sifatida olingan mablag‘lar ta’lim jarayonini ta’minlash va uni rivojlantirish uchun foydalilanildi.

Institut moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni sarflash, shuningdek byudjetidan tashqari mablag‘lari hisobidan o‘z binolarini kapital va joriy ta’mirlashni amalga oshirish huquqiga ega.

55. Institutni moliyalashtirish davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar uchun shartnoma asosida va davlat buyurtmasi asosida kadrlar buyurtmachilari hisobidan O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, shuningdek byudjetdan tashqari fondlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Institut ustav maqsadlariga muvofiq pullik ta’lim va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish institutning asosiy faoliyatiga xalaqit bermasligi kerak.

Qo‘srimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun to‘lovlarni undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Institut pullik ta’lim va boshqa xizmatlar ko‘rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish orqali olingan mablag‘larni mustaqil ravishda tasarruf etish huquqiga ega.

Institutni moliyalashtirishning qo‘srimcha manbalari quyidagilardan iborat:

shartnomalar, shu jumladan xorijiy jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo‘li bilan olingan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o‘quv, uslubiy va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarishdan olingan mablag‘lar;

ta’lim tashkilotlari tomonidan mahsulotlarni sotishdan, ishlarni bajarishdan va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar;

binolar, inshootlar va jihozlarni ijaraga berishdan olingan mablag‘lar;

ta’lim tashkilotlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank muassasalaridagi depozitlarga joylashtirish orqali olingan mablag‘lar (foizlar);

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

bank kreditlari va ssudalar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya fondlari.

davlat byudjetidan moliyalashtirilmaydigan va faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, fan va natijalarni tatbiq etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarini tashkil etish.

56. Ta’lim sohasida va institutning asosiy faoliyatiga zarar keltirmaydigan boshqa sohalarda pullik xizmatlar ko‘rsatish mumkin. Institutning xo‘jalik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Institut xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondida ishtirok etish, pullik ta’lim xizmatlari, maslahatlar narxlarini belgilash, soliqlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin qolgan daromadlarni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Institut pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish ta’lim faoliyati doirasida byudjetdan va uning o‘rniga ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin emas.

Institut shartnomalar tuzish, majburiyatlarni belgilash va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu Ustavga zid bo‘limgan boshqa shartlar bilan bog‘liq masalalarni mustaqil ravishda hal qiladi.

57. Institutdagi lavozim maoshlari “Oliy ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risidagi Nizom”ga va mehnat shartnomasi (shartnomasi) tuzishda mehnatga haq to‘lashning yagona tarif tizimiga muvofiq institut rektori va xodim o‘rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi. Oliy ta’lim muassasasi xodimiga mehnat shartnomasida nazarda tutilgan funksional vazifalar va ishlarni bajargani uchun ish haqi (stavka) to‘lanadi. Qo‘srimcha to‘lovlar, mukofotlar va boshqa moddiy rag‘batlantirishlar miqdori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda mustaqil mehnatga haq to‘lash fondi doirasida oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Belgilangan ish haqi faqat attestatsiya natijalariga ko‘ra oshirish maqsadida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

58. Institutda tashkil etilgan jamoat tashkilotlari faoliyati uchun zarur binolar ajratilib, ularni tozalash ishlari tashkil etiladi.

Institut hududida yoki balansida joylashgan hamda talabalar, tinglovchilar va xodimlarga xizmat ko‘rsatuvchi binolar, oshxona va boshqa umumiyligi ovqatlanish ob‘ektlari isitish, yoritish va suv ta’minoti bilan ta’minlangan holda ijara beriladi.

Institutning tegishli binolarini ta’mirlash, rekonstruksiya qilish yoki qurish, ularni molivaviy ta’minlash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

VIII. XALQARO HAMKORLIK

59. Institut amaldagi qonunchilikga muvofiq ta’lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o‘quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o‘rnatish, qonun xujjalarda belgilangan tartibda ular bilan qo‘shma o‘quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

60. Institut quyidagi huquqlarga ega:

- xalqaro nodavlat tashkilotlarga kirish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralishi mumkin bo‘lmagan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikdagi faoliyat to‘g‘risida belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish;

- xorijiy sheriklar ishtirokida oliy ta’lim muassasasining tarkibiy bo‘linmalari (markazlar, laboratoriylar, texnik saroylar va boshqa bo‘linmalar)ni qonunchilikda ko‘zda tutilgan tartibda tashkil etish.

61. Institut chet el fuqarolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta’lim muassasasi ilmiy - pedagogik xodimlarining O‘zbekiston Respublikasi xududidan tashqarida o‘qituvchilik va ilmiy - tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta’limni boshqarish bo‘yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek ToshPTIning qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

62. ToshPTI O‘zbekiston Respublikasining qonunchiliga muvofiq ushbu Ustavda nazarda tutilgan va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga, shuningdek xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

63. Institut O‘zbekiston Respublikasi oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohalaridagi xalqaro xamkorigida quyidagi tartibda qatnashish xuquqiga ega:

Institut Kengashining qaroriga binoan xorijiy davlatlarning tegishli o‘quv yurti biolan bevosita aloqalarni o‘rnatish, ular bilan xamkorlik to‘g‘risida shartnomalar tuzish, qonunchilikda yelgilangan tartibda xamkorlikdafakultet va kafedralar tashkil etish;

talabalar, izlanuvchilar, pedagogik va ilmiy xodimlar bilan ikki tomonlama almashish dasturida ishtirok etish;

hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlar, shuningdek, Institutda fan va ta’limni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya, seminar, videokonferensiya, kongresslar, simpoziumlar, yarmakalar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish va ishtirok etish;

xorijiy yuridik shaxslarning buyurtmalari bo‘yicha fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi kasbiy ta’limnitakomillashtirish xalqaro dasturlarida ishtirok etish;

bakalavrular, magistrler, mutaxassislar va olimlar uchun xorijiy standarlarga javob beradigan davlat standarlarini, o‘quv dasturlarini tayerlash;

talabalar almashinuvi dasturlari asosida malakaviy amaliyotni o‘tishi;

xamkorlikdagi magistratura mutaxassisliklarini tashkil etish;

institut magistratura talabalarining xorijiy stajirovkalarni amalga oshirishi;

respublika va xorijiy oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarga istiqbolli yosh bitiruvchilarni magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali oliy ta’lim muassasaning ilmiy-pedagogik saloxiyatini doimiy oshirib borish;

magistrik dasturlari, magistrlik dissertatsiyalari va mutaxasislarni tayerlash bo'yicha birgalikdagi rahbarligini amalga oshirish;

professor-o'qituvchilarning xorijda malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitish;

xamkorlikda o'quv-me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish;

xamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatni olib borish, jumladan magistratura, PhD va DSc dissertatsiyalarini xamkorlikda bajarish;

xar ikkala oliygohlar yoki ilmiy markazlarning ixtisoslashgan jurnallarida (to'plamlarida) nashrlar;

64. Institutning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan uning Ustavida belgilangan faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi.

IX. INSTITUT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

65. Institut hisobot davri tugagach, vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni va ro'yxati qonun xujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarning saqlanishi va ularning belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlashga berilishi uchun javob beradi.

66. Institut faoliyatini xo'jalik yurituvchi organ sifatida nazorat qilish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda muassis va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

X. QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

67. Ta'lim tashkilotlarini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlari qayta tashkil etilgan taqdirda ularning mol-mulki huquqiy vorislik asosida yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotiga o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlari tugatilganda, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ularga tegishli bo'lgan mol-mulk kreditorlarning talablari qanoatlantirilgandan keyin muassislarga (ishtirokchilarga) qaytariladi.

XI. Boshqa qoidalar

68. Mazkur Ustav kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq tasdiqlanishi, keyin davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Mazkur Ustavga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kuchga kiradi.

69. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

70. Ushbu Nizomning biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan holatda, qolgan qoidalar o'z kuchida qoladi.

71. Mazkur Ustavda hal etilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

